

NUTQNING O'ZARO TA'SIRI JARAYONIDAGI ANALITIK VA DISKURSIV
XUSUSIYATLARI**Murhanova Nilufar****Xolisova Gavharoy***Andijon davlat chet tillar instituti**Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası*

Annotatsiya: *Jahon tilshunosligida tijoriy diskursning nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganish eng muhim va dolzarb muammolaridan biri bo'lib ayniqsa, lisoniy vositalarning diskurs maqomidagi o'rganilishi amaliy jihatdan ancha samarali kechmoqda. Til birliklari, lisoniy imkoniyatlar davr nuqtai nazaridan kengayib boraveradi. Shu nuqtai nazardan turli uslubdagi matnlarni zamonaviy aspektlarda tekshirib ko'rish tilshunoslikka yangi ma'lumotlar, g'oyalar taqdim qiladi.*

Kalit so'zlar: *tijoriy, muloqot, nutq, uslub, lisoniy imkoniyatlar.*

Abstract: *Studying the theoretical and practical importance of commercial discourse in world linguistics is one of the most important and urgent problems, especially the study of linguistic tools in the status of discourse is very effective from a practical point of view. Language units, linguistic possibilities are expanding from the point of view of the era. From this point of view, examining texts of different styles in modern aspects provides new information and ideas to linguistics.*

Key words: *business, communication, speech, style, linguistic capabilities.*

Аннотация: *Исследование теоретического и практического значения коммерческого дискурса в мировой лингвистике является одной из важнейших и актуальных проблем, особенно изучение лингвистических средств в статусе дискурса весьма эффективно с практической точки зрения. Языковые единицы, языковые возможности расширяются с точки зрения эпохи. С этой точки зрения рассмотрение текстов разных стилей в современных аспектах дает лингвистике новую информацию и идеи.*

Ключевые слова: *дело, общение, речь, стиль, языковые возможности.*

Biz bugun ko'rib turganimiz butun borliq hissiyot va tuyg'ularimiz orqali tasavvur etayotganimiz barcha-barchasini so'z orqali ifoda etamiz. Yaratganning kalomini ham shu so'z bois anglashimiz, Parvardigorni tanishimiz va unga ibodatu iltijolarimiz, Allohning rasuli Muhammad Mustafo sollallohu alayhissalomning hadisi shariflarini anglashimiz, odamlarning bir-birlariga bog'lanishida, muomala-munosabatida asosiy vosita bo'lgan so'zning (nutqning) tarixiy taraqqiyotimiz yo'lidagi, madaniy-maishiy ishlarimizdagi, ijod va ilm olish borasidagi xizmatlarini chegaralab bo'lmaydi. Til - ma'lum kishilar jamoasi a'zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar sistemalaridan biri bo'lib, jamiyatda tafakkurning

rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi. Nutq - ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir. Til nutqqa aylangach, moddiy ahamiyat kasb etadi. Nutq - nutq (a'zolari) organlari harakatining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Nutq a'zolarining harakati nutq faoliyati hisoblanadi. Nutq faoliyati deganda inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy-fiziologik ishining yig'indisi tushuniladi. Aniq aytilgan (yoki yozilgan) bir gap yoki o'zaro mantiqiy bog'langan gaplar yig'indisi nutqiy asar deyiladi: "Nutqiy asar" tushunchasi og'zaki yoki yozma nutqning har qanday parchasini ham, xalq og'zaki ijodi asarlari va badiiy yozma adabiyotning tugallangan asarlarini ham o'z ichiga qamraydi. Har qanday nutqiy asar matn sifatida yuzaga chiqadi.

Og'zaki nutq turlari

1. Siyosiy-ijtimoiy nutq:

1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy mavzudagi nutq.
2. Sessiya, konferensiyadagi nutq.
3. Siyosiy sharh.
4. Harbiy vatanparvarlik nutqi.
5. Miting nutqi.
6. Rasmiy-diplomatik nutq.
7. Ilmiy-ommabop nutq.

2. Akademik nutq:

1. O'quv yurtlari ma'ruzalari.
2. Ilmiy nutq (ma'ruzalar).
3. Ilmiy sharh.
4. Ilmiy axborot.

3. Sud nutqi:

1. Qoralovchi (prokuror) nutqi.
2. Jamoatchi-qoralovchi nutqi.
3. Oqlovchi (advokat) nutqi.
4. Jamoatchi oqlovchi nutqi.
5. O'z-o'zini himoya qilish nutqi.

4. Ijtimoiy-maishiy nutq:

1. Madhiya (yubiley yoki maqtov nutqi).
2. Ta'ziya (motam nutqi).
3. Tabrik nutqi (tost).

5. Diniy nutq:

1. Hutba.
2. Va'z.

Muloqot – murakkab ko'rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat

natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasi lisoniy tafakkur faoliyatining «iz»lari saqlanadi. Ammo ushbu «iz»larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi – matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug‘iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar⁴⁹. O‘zbek tilshunos olimlari Q. Sodiqov [va Q.O. Omonovlarning fikrlariga ko‘ra](#), rasmiy uslubning tabiati aniqlikni talab etadi. Aniqlik – hujjatlar uslubining asosiy belgisi⁵⁰.

Matnning turg‘un, tayyor mahsulot, diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab bo‘ladi. Muloqot – axborot almashuv jarayoni, uning maqsadi ham shu. Axborot uzatish yozma yoki og‘zaki usulda kechishi bilan unchalik farq qilmaydi. Hatto dialog ham yozma nutq vositasida kechishi mumkinligini bilamiz (masalan, diplomatik notalar almashuvi, xufiyona yozishmalar, siyosiy va ilmiy mazmundagi ma‘ruzalar avval yozma tayyorlanib, keyin o‘qib beriladi). Ko‘pchilik “ilmiy matn” va “ilmiy diskurs” tushunchalarini bir xil ma‘noda anglaydilar.⁵¹ Shuni ta‘kidlash mumkinki, biznes sohasidagi aloqa xususiyatlarini aniqlash muammosi mahalliy ilmiy adabiyotda kam o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida tijorat xatlarining lingvopragmatik aspekti ingliz va o‘zbek tillari materiallari tahlili asosida o‘rganilgan⁵². Tijorat sohasida kommunikativ o‘zaro ta‘sirning xususiyatlarini aks ettiradigan yangi atamalar, tushunchalar haqida ham mulohaza yuritish kerak bo‘ladi. Jumladan, Yu.V. Danyushina “biznes-diskurs” tushunchasini “o‘zaro ta‘sirning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisa sifatida” ishbilarmonlik sohasiga va biznesning keng doirasiga kiritishni taklif qiladi⁵³. Mazkur yondashuvni amalga oshirishda tijoriy muloqot va tijoriy diskurs biznes-diskursning subtiplaridan biri, ishbilarmonlik muloqotini anglatadi. O‘zaro ta‘sirning tijoriy maqsadlari kasb, tijorat tashkilotlari yoki muassasalarining faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Avvalroq aytib o‘tilganidek, tijoriy muloqotning asosiy maqsadi moddiy manfaatlar olish, professional muhim muammolarni hal qilishdir.

Muloqotning ko‘p funksional xususiyatini hisobga olgan holda, shuni qo‘shimcha qilish kerakki, aksariyat hollarda nutq ko‘p komponentli bo‘lib, bu tijoriy diskursni murakkab tuzilgan shakllanish sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, bunda gapning yaxlitligini shakllantirishda har bir alohida komponent ishtirok etadi. Shu bilan birga, aniqlangan uslubiy, tarkibiy va kompozitsion xususiyatlar umumiy, biznes muloqoti uchun universaldir. Shu bilan birga, tijoriy muloqotga milliy madaniyatlar ta‘sir qiladi, bu esa ularni qarama-qarshi o‘rganish va tushunishni talab qiladigan qo‘shimcha

⁴⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Жиззах: Сангзор, 2007. – Б.231.

⁵⁰ Содиков К. Омонов Қ.О. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. <http://azrefs.org/osimjon-sodiov-udratulla-omonov-zbek-tilining-ezma-uslublari-t.html?page=9>

⁵¹ Ўша манба – Б.248.

⁵² Каримов Р. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материалида): фил.фанлари бўйича фал. док... дисс. – Тошкент, 2018. – 190 б.

⁵³ Данюшина Ю. В. Бизнес-дискурс: термин, типология, анализ// Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2010. – № 2 (46). – С. 49.

ravishda milliy aniqlangan, milliy darajada belgilangan uslubiy va kompozitsion xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Сосновская А. М. Деловая коммуникация и переговоры: учеб. пособие. СПб.: Изд-во СЗАГС, 2011. — 8 с.; ил.- С. 96
2. Большаков С. Н. Бизнес-коммуникации : учеб. пособие / С. Н. Большаков, М. О. Потолокова — СПб.: С.-Петербур. гос. ун-т, филол. ф-т, 2012. — 137 с. - С. 62
3. Мандрица В. М. Этика бизнеса - деловое общение / В. М. Мандрица, И. В. Мандрица. - Ростов-на-Дону : РИНХ, 2005 (ООО АзовПечать). - 227 с. - С. 184
4. Желамская В. А. Лингвистическая структура деловой документации на материале французского и итальянского языков: Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2017. – 332 с. – С. 131